



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI,
XALQARO INVESTITSIYAVIY MAVQEI
VA TASHQI QARZI**

2024

9

OYLIK

Bu qanday nashr?

Ushbu nashr 2024-yilning 9 oyi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olib, Xalqaro valyuta jamg'armasining "To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe bo'yicha qo'llanmasi"ning oltinchi nashriga (TBQ 6-son, XVJ, 2009 y.) hamda "Tashqi qarz statistikasi bo'yicha qo'llanma"ga (2013) muvofiq tayyorlangan.

Ma'lumotlar qaysi sanaga dolzarb?

Ushbu nashrda keltirilgan statistik ma'lumotlar 2024-yil 24-dekabr holatiga dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumotlarni qayerdan olish mumkin?

To'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha tahliliy va standart ko'rinishdagi statistik jadvallar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <http://www.cbu.uz/> va XVJning <http://data.imf.org/> veb-saytlari orqali taqdim qilinmoqda.

Nashrga taalluqli savol va takliflar bo'yicha qanday murojaat qilish mumkin?

O.O. Tojiddinov

Valyutani tartibga solish va to'lov balansi departamenti direktori

(+998) 71 212-60-38

o.tojiddinov@cbu.uz

Sh.X. Xayitboyev

To'lov balansi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

(+998) 71 212-60-42

sh.khayitboev@cbu.uz


Shuningdek, savollar va takliflar qo'shimcha ravishda val@cbu.uz elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin.

QISQACHA SHARH

2024-yilning 9 oyida **joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi** o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17 foizga **qisqarib, 3,4 mlrd** dollar yoki YalMga nisbatan **4,3 foizni** tashkil qildi. Bunga savdo balansi manfiy saldosi o'sish sur'atining o'tgan yildagiga nisbatan pastroq shakllanishi bilan birga mamlakatga xalqaro pul o'tkazmalari hajmining sezilarli darajada ko'payishi ta'sir ko'rsatdi.

Jumladan, joriy yilning 9 oyi davomida xalqaro bozorlarda xomashyo narxlarining o'zgarishi¹ hamda norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining ko'payishi natijasida, **eksport** hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **4 foizga** o'sib, **19,1 mlrd** dollarni tashkil qildi.

Mazkur davrda **import** hajmi o'tgan yillarga nisbatan pastroq sur'atlarda o'sib (**5,5 foiz**), **31,4 mlrd** dollarga yetdi. Bu mamlakatda investitsiyaviy faollik va ichki iste'mol talabi yuqori darajada saqlanib qolishi sharoitida xorijdan energoresurslar, mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari keltirilishiga qaramasdan, 2023-yilda ayrim turdagi tovarlarning bir martalik yirik importi hisobiga yuqori baza shakllanganligi bilan izohlanadi.



¹ Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining xomashyo tovarlari narxlariga oid ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida oltinning o'rtacha narxi o'tgan yilning mos davridagi o'rtacha narxga nisbatan 19 foizga, kumush narxi 16 foizga, mis narxi 6 foizga hamda uran narxi 62 foizga o'sgan.


Natijada, 2024-yilning 9 oyida **savdo balansining** manfiy saldosi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8 foizga ko'payib, **12,4 mlrd** dollarni tashkil qildi.

O'z navbatida, **birlamchi va ikkilamchi daromadlar balansi** musbat saldo bilan shakllanib, mos ravishda **973 mln** dollar va **8 mlrd** dollarni tashkil etgan holda savdo balansi taqchilligini qisman qopladi.

Mehnat migratsiyasi geografiyasining diversifikatsiyasi hamda mehnat muhojirlari ishlaydigan an'anaviy mamlakatlarda ish haqi miqdorining ko'payishi birlamchi va ikkilamchi daromadlar komponentlari bo'yicha tushumlarning shakllanishini rag'batlantirgan bo'lsa, norezidentlarning investitsiya daromadlari oshishi xarajatlarni ko'paytiruvchi omillardan bo'ldi.

Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi moliyaviy hisob bo'yicha kapital tushumlar, xususan, to'g'ridan-to'g'ri, portfel investitsiyalar va boshqa manbalar jalb qilinishi hisobiga moliyalashtirildi.

Jumladan, 2024-yilning 9 oyi davomida mamlakatga **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kiritilishi**² o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7 foizga o'sib, qariyb 1,9 mlrd dollarga teng bo'ldi.



² To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar Xalqaro valyuta jamg'armasining qo'llanmasiga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) muvofiq sof hajmlarda (investitsiya kiritilishi va repatriatsiyasi o'rtasidagi saldo) aks ettiriladi.

Portfel investitsiyalarning sof jalb qilinishi 1,7 mlrd dollarni tashkil qilib, asosan xalqaro obligatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobiga shakllandi.

Yuqoridagi tarkibiy omillar hisobiga 2024-yilning 9 oyi yakuni bo'yicha **moliyaviy hisob** manfiy saldosi **3,9 mlrd** dollarni tashkil etdi.

Hisobot davrida **xalqaro zaxira aktivlarining** xorijiy valyutadagi qismi 678 mln dollarga qisqarishi kuzatildi. Biroq, oltin jahon narxining yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida xalqaro zaxiralar qoldig'i joriy yil boshiga nisbatan qariyb 6,6 mlrd dollarga ko'payib, 2024-yilning 1-oktabr holatiga **41,1 mlrd** dollarni tashkil qildi.

2024-yilning 9 oyi yakuniga ko'ra, to'lov balansida aks etgan amaliyotlar va nooperatsiyaviy o'zgarishlar ta'sirida O'zbekistonning **sof xalqaro investitsiyaviy mavqei** joriy yil boshiga nisbatan **29 foizga** mustahkamlanib, 2024-yil 1-oktabr holatiga **16,3 mlrd** dollarga yetdi.

Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi 10,8 mlrd dollarga (*joriy yilning boshiga nisbatan o'sish 13 foiz*) oshgan bo'lsa, tashqi majburiyatlari hajmi 7,1 mlrd dollarga (*o'sish 10 foiz*) ko'paydi.

Hisobot davri yakuniga ko'ra, **umumiy tashqi qarz** hajmi **60,2 mlrd** dollarni tashkil qilib, shundan davlat tashqi qarzi hajmi qariyb 32,5 mlrd dollar³ hamda korporativ tashqi qarz hajmi 27,7 mlrd dollarga teng bo'ldi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarz ko'rsatkichlarini shakllantirish doirasidagi hamkorlik uchun tegishli vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi hamda keyingi samarali hamkorlikka umid qiladi.

³ XVJning TBQ 6-son qo'llanmasiga muvofiq davlat tashqi qarzi qoldig'i hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni ham o'z ichiga oladi.

2025-YIL UCHUN KUTILMALAR

O'zbekiston Respublikasi to'lov balansining 2025-yil uchun **asosiy** va **muqobil** ssenariylarda **dastlabki prognoz** ko'rsatkichlari shakllantirildi. Bunda joriy va keyingi yillardagi mamlakatimiz va uning asosiy savdo hamkorlaridagi iqtisodiy faollik darajasi, xalqaro moliya va tovar-xomashyo bozorlari kon'yunkturasi, mehnat va kapital migratsiyasi, tashqi savdo va logistika sohalaridagi o'zgarishlar dinamikasi bo'yicha ekspertlarning kutilma va baholashlari inobatga olindi⁴.

I. Asosiy ssenariy

Kelgusi yilda O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining biroz sekinlashishi prognoz qilinmoqda⁵. Xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasiga ko'ra, 2025-yilda Xitoy iqtisodiyoti 4,5 foizga (2024-y. 4,8%), Rossiya 1,3 foizga (2024-y. 3,6%), Turkiya 2,7 foizga (2024-y. 3,6%) va Qozog'iston 4,6 foizga (2024-y. 3,5%) o'sishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekistonning asosiy eksport xomashyo mahsulotlarining jahon narxlari bo'yicha ijobiy kutilmalar saqlanib qolmoqda. Xususan, global geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy noaniqliklar fonida keyingi yil davomida rangli va rangsiz metallar (*oltin, kumush, mis, uran*) narxi keskin o'zgarishlarsiz nisbatan yuqori darajada shakllanishi, paxta (*to'qimachilik sohasi asosiy xomashyosi*) narxi 2024-yildagi pasayishdan so'ng yalpi taklif kamayishi ortidan biroz ko'tarilishi taxmin qilinmoqda⁶.

Yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida, shuningdek, 2025-yilda turizm va axborot texnologiyalari (IT) sohasida keng ko'lamlı islohotlarning davom ettirilishi natijasida, **jami eksport hajmi** 2024-yilga nisbatan 9-11 foizga o'sishi kutilmoqda.

Keyingi yilda mamlakatimizda iqtisodiy faollik va iste'mol talabi yuqori darajada saqlanib qolishi (*2025-yilda real YaIM o'sishi bo'yicha prognoz 5,5-6 foiz⁷*) mashina-uskuna, transport vositalari, yoqilg'i-energetika mahsulotlari, oziq-ovqat va xomashyo importi o'sishida namoyon bo'lishi mumkin. Shuningdek, Hukumatning fiskal taqchillikni kamaytirish (*fiskal konsolidatsiya*) bo'yicha rejalarini inobatga olib, 2025-yilda **jami import hajmi** 2024-yilga nisbatan 8-10 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda.

⁴ 2025-yil davomida ichki va tashqi omillarning rivojlanishi hamda iqtisodiy kutilmalarning o'zgarishidan kelib chiqib, prognoz ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqib boriladi.

⁵ Jahon iqtisodiy istiqbollari, XVJ, 2024-y. oktyabr.

⁶ Xomashyo borozlari istiqbollari, Jahon banki, 2024-y. oktyabr.

⁷ Pul-kredit siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki nashri, 2024-yil.

Joriy yil davomida mehnat migratsiyasi yo'nalishida kuzatilgan ijobiy tendensiyalar, xususan muhojirlarni qabul qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy faollik va ish haqlarining oshishi hamda migratsiya geografiyasi tarkibida yuqori daromadli mamlakatlar ulushining ortishi kelgusi yilda ham davom etishi O'zbekistonga xalqaro pul o'tkazmalari hajmining 10-12 foizga oshishini ta'minlashi kutilmoqda.

Global moliyaviy sharoitlarning bosqichma-bosqich yumshatib borilishi natijasida foiz stavkalarining pasayishi (*joriy yil boshidan SOFR stavkasi kamayishi o'rtacha 0,7 foiz band*) norezidentlardan suzuvchan foiz stavkalarda jalb qilingan kreditlar va qarzlarga xizmat ko'rsatish xarajatlarini qisqartiradi.

2025-yilda savdo balansi manfiy saldosi qoplashga xizmat qiluvchi **birlamchi va ikkilamchi daromadlar** komponentining ijobiy saldosi 2024-yilga nisbatan 8-10 foizga ko'payishi taxmin qilinmoqda.

Dastlabki tahlillarga ko'ra, yuqoridagi omillar ta'sirida 2025-yil yakuni bilan to'lov balansi **joriy operatsiyalari hisobining** manfiy saldosi YalMning 5-6,5 foizi atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

2025-yilda joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi asosan xorijiy **to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning** sof kiritilishi (*energetika, tog'-kon, mashinasozlik, kimyo sanoati, to'qimachilik, bank-moliya va boshqa sohalarga kiritilishi kutilayotgan sarmoyalar hisobiga o'rtacha 2022-2024-yillar darajasida bo'lishi*), **portfel investitsiyalar** (*xalqaro kapital bozorlarida yangi yevrobondlar joylashtirilishi*) va **tashqi qarz mablag'lari** jalb qilinishi hisobiga moliyalashtirilishi kutilmoqda.

II. Muqobil ssenariy

Asosiy ssenariydan farqli o'laroq, muqobil ssenariyda 2025-yil yakuni bilan to'lov balansining **joriy operatsiyalari hisobi** YalMning 6,5-8 foiziga teng manfiy saldo bilan shakllanishi taxmin qilinmoqda.

Muqobil ssenariyda, to'lov balansi ko'rsatkichlarining shakllanishiga quyidagi **omillar** ta'sir qilishi mumkin:

1. Geosiyosiy vaziyatning keskinlashishi va tashqi savdoda fragmentatsiya jarayonlarining kuchayishi oqibatida O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiy faollikning kutilmalarga nisbatan past darajada bo'lishi va yalpi talabning qisqarishi;

2. Xalqaro bozorlarda O'zbekistonning asosiy eksport tovarlari (rangli va rangsiz metallar, paxta xomashyosi, oziq-ovqat mahsulotlari) narxlarining pasayishi;

3. Global inflyatsion jarayonlar kuchayishi fonida pul-kredit sharoitlarining qat'iy darajada saqlanib qolishi natijasida tashqi qarz mablag'lariga xizmat ko'rsatish xarajatlarining ortishi va xorijiy investitsiyalar oqimining kamayishi;

4. Sanksiyalarning kuchaytirilishi oqibatida mehnat muhojirlarini qabul qiluvchi an'anaviy mamlakatlarning valyuta kurslaridagi yuqori tebranishlarning kuzatilishi va to'lov tizimlaridagi uzilishlar ortidan transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmining kamayishi;

5. Yakuniy iste'mol xarajatlari ko'payishi va investitsiyaviy faollikning jadallashishi natijasida yalpi talabning oshishi mashina-uskuna va transport vositalari (*davlat va xususiy investitsiya dasturlari doirasidagi yirik hajmdagi tovarlar*), energoresurslar va boshqa xomashyolar importi o'sishida o'z aksini topishi mumkin.

1-ilova. 2022-2024-yillarning 9 oyi uchun to'lov balansi

(tahliliy ko'rinishi)

(mln dollar)

Ko'rsatkichlar	2022-yil 9 oy	2023-yil 9 oy	2024-yil 9 oy
A. Joriy operatsiyalar hisobi saldosi	-1 454,0	-4 159,1	-3 448,4
Tovarlar, kredit (eksport)	12 111,2	14 270,0	14 269,3
Tovarlar, debet (import)	20 093,9	23 938,1	24 073,3
Xizmatlar, kredit (eksport)	3 058,2	4 046,2	4 780,8
Xizmatlar, debet (import)	5 324,1	5 852,2	7 361,0
<i>Jami eksport</i>	<i>15 169,5</i>	<i>18 316,2</i>	<i>19 050,1</i>
<i>Jami import</i>	<i>25 418,0</i>	<i>29 790,3</i>	<i>31 434,3</i>
<i>Savdo balansi saldosi</i>	<i>-10 248,6</i>	<i>-11 474,1</i>	<i>-12 384,3</i>
Birlamchi daromadlar, kredit	3 193,5	4 061,0	4 409,2
Birlamchi daromadlar, debet	2 344,7	3 034,3	3 436,3
<i>Savdo balansi va birlamchi daromadlar saldosi</i>	<i>-9 399,7</i>	<i>-10 447,5</i>	<i>-11 411,3</i>
Ikkilamchi daromadlar, kredit	8 595,0	6 957,2	8 765,7
Ikkilamchi daromadlar, debet	649,3	668,8	802,7
B. Kapital operatsiyalari hisobi (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	11,6	7,9	6,0
Kapital operatsiyalar hisobi, kredit	11,6	7,9	6,0
Kapital operatsiyalar hisobi, debet	0,0	0,0	0,0
<i>Joriy operatsiyalar hisobi va kapital operatsiyalar hisobi saldosi</i>	<i>-1 442,5</i>	<i>-4 151,1</i>	<i>-3 442,4</i>
C. Moliyaviy hisob	1 100,2	-1 923,1	-3 277,2
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, aktivlar	3,3	11,1	13,9
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, majburiyatlar	1 753,1	1 757,7	1 876,5
Portfel investitsiyalar, aktivlar	0,0	0,2	0,3
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	0,0	0,2	0,3
Qarz instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Portfel investitsiyalar, majburiyatlar	29,6	131,1	1 703,7
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	17,2	16,0	-7,0
Qarz instrumentlari	12,3	115,1	1 710,7
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	8,7	1,6	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, aktivlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, majburiyatlar	-8,7	-1,6	0,0

Ko'rsatkichlar	2022-yil 9 oy	2023-yil 9 oy	2024-yil 9 oy
Boshqa investitsiyalar, aktivlar	9 857,2	3 785,2	4 597,1
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,4	0,4	5,0
Qarz instrumentlari	9 856,8	3 784,8	4 592,1
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	3 391,3	-781,9	857,8
Davlat boshqaruv sektori	-15,3	-13,9	-9,8
Boshqa sektorlar	6 480,8	4 580,6	3 744,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	6 480,8	4 580,6	3 744,0
Boshqa investitsiyalar, majburiyatlar	6 986,5	3 832,3	4 308,3
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,0	0,0	0,0
MQH taqsimlanishi	2,8	2,2	-0,7
Qarz instrumentlari	6 983,7	3 830,1	4 308,9
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	3 730,0	874,4	197,0
Davlat boshqaruv sektori	671,4	1 113,0	2 377,5
Boshqa sektorlar	2 582,3	1 842,7	1 734,5
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	21,3	21,1	6,3
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	2 561,1	1 821,6	1 728,2
D. Sof xatolar va yo'qotishlar	1 115,8	-2 434,2	-420,1
E. Umumiy balans	1 426,9	4 662,3	585,3
F. Zaxiralar va ular bilan bog'liq moddalar	-1 426,9	-4 662,3	-585,3
Zaxira aktivlari	-1 426,2	-4 692,6	-677,5
XVJdan sof qarz jalb qilish (XVJdagi zaxira pozitsiyasidan tashqari)	0,6	-30,4	-92,3
Boshqa moliyalashtirish	0,0	0,0	0,0

Ushbu statistik hisobot to'lov balansini tuzish qo'llanmasining (TBQ 6-son, XVJ, 2009 y.) 6-nashrida keltirilgan tahliliy ko'rinishni aks ettiradi.

2-ilova. 2022-2023 yillar va 2024 yilning 9 oyi uchun xalqaro investitsiyaviy mavqe

(mln dollar)

Ko'rsatkichlar	01.01.2023y.	01.01.2024y.	01.10.2024y.
Aktivlar	82 293,7	84 883,5	95 653,3
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	202,0	209,9	223,4
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	31,6	37,1	48,7
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	31,6	37,1	48,7
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	170,3	172,8	174,7
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2,5	2,5	2,5
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	167,9	170,4	172,2
Portfel investitsiyalar	2,5	2,9	3,2
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	2,5	2,9	3,2
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	1,1	1,1	1,1
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	1,4	1,8	2,1
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Qarz qimmatli qog'ozlari	0,0	0,0	0,0
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	0,0	0,0	0,0
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	0,0	0,0	0,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	01.01.2023y.	01.01.2024y.	01.10.2024y.
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiyalari	0,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	46 321,6	50 106,0	54 287,7
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	1,6	2,0	7,0
Qarz instrumentlari	46 320,0	50 104,0	54 280,6
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	4 556,9	3 242,7	4 104,6
Davlat boshqaruvi sektori	3,7	4,8	5,3
Boshqa sektorlar	41 759,4	46 856,4	50 170,7
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Zaxira aktivlari	35 767,5	34 564,6	41 139,1
Monetar oltin	23 064,8	24 632,2	31 860,3
Qarz olishlarning maxsus huquqlari	1 057,3	563,0	569,2
XVJdagi zaxira pozitsiyasi	0,0	0,0	0,0
Boshqa zaxira aktivlari	11 645,4	9 369,5	8 709,6
Majburiyatlar	63 337,5	72 278,5	79 334,6
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	13 844,7	14 866,9	15 856,7
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	11 363,5	11 356,8	11 670,8
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	11 363,5	11 356,8	11 670,8
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	2 481,2	3 510,1	4 185,9
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2 250,3	3 217,4	3 845,2
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	230,9	292,7	340,7
Portfel investitsiyalar	4 192,3	5 295,5	7 139,6
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	105,8	123,7	113,8

Ko'rsatkichlar	01.01.2023y.	01.01.2024y.	01.10.2024y.
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	48,4	57,5	72,1
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	57,4	66,3	41,7
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	1,3	1,7	1,3
Qarz qimmatli qog'ozlari	4 086,5	5 171,8	7 025,8
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	893,9	1 027,7	1 927,3
Davlat boshqaruvi sektori	2 375,2	3 284,9	4 175,0
Boshqa sektorlar	817,3	859,2	923,6
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliya instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiyalari	2,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	45 298,6	52 116,1	56 338,3
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Qarz olishlarning maxsus huquqlari (majburiyatlarni sof qabul qilish)	1 057,6	1 068,8	1 079,8
Boshqa qarz instrumentlari	44 241,0	51 047,3	55 258,5
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	10 439,6	11 316,6	11 493,4
Davlat boshqaruvi sektori	18 007,8	21 353,4	23 623,3
Boshqa sektorlar	15 793,6	18 377,4	20 141,8
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	105,1	114,1	119,5
Sof xalqaro investitsiyaviy mavqe	18 956,1	12 605,0	16 318,7